



UDK: 341.462.2

Laylo MUHITDINOVA

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: laylo.muhitdinova@gmail.com.

TDSHU professori, tarix fanlari doktori S.Shodmonova taqrizi asosida

MAHALLA INSTITUTE IN THE SYSTEM OF SOCIAL MANAGEMENT AND CIVIL SOCIETY

Annotation

In the context of socio-economic, ideological-cultural, and ideological-political changes taking place in various regions of the world in the last quarter of the 20th and early 21st centuries, when globalization processes are intensifying, the issue of preserving and transmitting the historical and spiritual values of peoples to future generations is becoming increasingly important. The changes taking place in social and economic relations in the world, the political and administrative structure of the state, provide the population with the opportunity to actively participate in management processes, primarily at the local level. The realization of this possibility is characteristic of the structural component of local self-government bodies of civil society, and therefore the role of this structure as an independent institution of society is increasing.

Keywords: Mahalla, media, social management, civil society, media influence, conceptual model, historical processes.

ИНСТИТУТ МАХАЛЛИ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В условиях социально-экономических, идейно-культурных, идейно-политических изменений, происходящих в различных регионах мира в последней четверти XX века и начале XXI века, когда процессы глобализации становятся все более интенсивными, вопрос сохранения и передачи исторических и духовных ценностей народов будущим поколениям приобретает все большее значение. Происходящие в мире изменения в социальных и экономических отношениях, политическая и административная структура государства дают возможность населению активно участвовать в процессах управления, прежде всего на местном уровне. Реализация этой возможности характерна для структуры органов местного самоуправления гражданского общества, в связи с чем возрастает роль данной структуры как самостоятельного института общества.

Ключевые слова: Махалля, СМИ, социальное управление, гражданское общество, влияние СМИ, концептуальная модель, исторический процесс.

MAHALLA INSTITUTI IJTIMOYIY BOSHQARUV VA FUQAROLIK JAMIYATI TIZIMIDA

Annotatsiya

Globalashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan XX asrning so'nggi choragi va XXI asr boshlarida dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-madaniy, mafkuraviy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida xalqlarning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda kelajak avlodlarga yetkazish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar, davlatning siyosiy va ma'muriy tuzilmasi aholiga boshqaruv jarayonlarida, avvalambor, mahalliy darajada faol ishtirok etish imkoniyatini bermoqda. Ushbu imkoniyatning ro'yobga chiqishi fuqarolik jamiyatining mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiy qismiga xos bo'lib, shu boisdan mazkur tuzilmaning jamiyatning mustaqil instituti sifatidagi o'rni ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: Mahalla, OAV, ijtimoiy boshqaruv, fuqarolik jamiyati, OAV ta'siri, konseptual model, tarixiy jarayon.

Kirish. Sharq xalqlari, xususan o'zbeklarda jamoa kishilarni qon-qarindoshlik, qo'ni qo'shnicilik rishtalari bilan bog'lovchi muhim bo'g'in vazifasini o'tab, unda har bir inson o'z o'rniga ega bo'lishga intilgan, har biri o'z funksiyasi va vazifalariga ega bo'lgan. Eng muhimi, jamoa a'zolari ma'lum hududda yashab, bu yerda o'zaro ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanib kelgan.

Akademik A.Asqarov ilmiy izlanishlarining hosilasi sifatida, bu davrda ilk shaharga xos kishilarning dastlabki jamoa bo'lib yashash kurtaklari paydo bo'la boshlagan[1]. Sopollitepa ilk shahar manzilgohi qal'asi ichki maydoni bir-birlari bilan tor ko'chalar bilan ajratilgan 8 ta uy-joy kompleksidan iborat bo'lgan. Dastlab uy-joy komplekslari qal'a ichki devorlariga yopishtirib qurilib, ular qal'a markaziy maydoni bilan bog'langan tor ko'chalar bo'ylab kengayib borgan. O'z navbatida Sopollitepa 8 ta bronza davri patriarxal urug'-jamolarining qishlog'i bo'lgan[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, hududdagi kishilarning ushbu hududiy, etnik va madaniy uyushmasi asosidagi ilk jamoasio'sha davrda garchand mahalla, deb atalmagan bo'lsa-da, shahar ichidagi kichik shaharcha, ya'ni mahallaning kichik bo'g'inini tashkil etgan. Qadimgi Quva, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Choch shahristonlaridan topilgan arxeologik topilmalarga ko'ra, ushbu manzilgohlarda ham aholi ma'lum dahalar va jamoalarga bo'lingan holda yashagan. Qadimgi mahallalarni o'zaro birtirgan dahalar alohida xo'jaliklardan tashkil topgan. Har bir ho'jalikda bir necha oila a'zolari birgalikda yashaganlar[3]. Bunday qadimgi mahalladagi uylarning o'ng tomonidan kundalik ovqat tayyorlashda ishlatilgan o'choq qoldiqlari topilgan. Demak, qadimgi Sopollitepa, Jarqo'ton, Quva, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Choch shahristonlari ham mahalla shakllanishining ilk manzil-gohlari bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqola qiyosiy tahlil, tarixiylik, ilmiylik, uzviylik kabi metodlarga tayanilgan holda yozilgan.

Tahlil va natijalar. Biz mazkur maqolada to'plangan ilmiy ma'lumotlar asosida mahallaning mohiyati, etnoevolyutsiyasidan kelib chiqib, uning tarixiy taraqqiyotini quyidagi yetti bosqichga bo'lishni lozim topdik:

Birinchi bosqich: qadimgi bronza davrining so'nggi bosqichlaridan boshlanib, milodiy VIII asrgacha davom etgan. Ya'ni, ilk shahar manzilgohlarida kishilarning jamoa bo'lib uyushuvi va dastlabki mahallaga xos belgilarning shakllana boshlagan davri;

Ikkinchi bosqich: VIII asrdan XIII asrgacha bo'lgan davr. Ya'ni yirik shaharlarda mahallaga xos boshqaruvning shakllanishi va ularning barcha aholimanzilgohlari uchun ma'muriy-hududiy tuzilmaga aylanishi davri;

Uchinchi bosqich: XIII – XVI asrlar, ya'ni rivojlangan o'rta asrlarda mahallaning barcha katta-kichik shaharlar uchun xos uyushma darajasiga ko'tarilishi, rivojlanishi va uning funksiyalarining oldingi davrlarga nisbatan ortishi davri;

To'rtinchi bosqich: XVI–XIX asrlar, ya'ni mahallaning so'nggi o'rta asrlardagi rivojlanish bosqichlari;

Beshinchi bosqich: XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr. Ya'ni mahalla faoliyatining Rossiya imperiyasi tomonidan nazoratga olinishi davri;

Oltinchi bosqich: XX asr, ya'ni sovet davrida kommunistik mafkura va ma'muriy-buyruqbozlik tizimining mahallalar faoliyatiga ta'siri hamda uning faoliyati cheklanishi davri;

Yettinchi bosqich: O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahallaning tarixiy an'analari va nufuzining qayta tiklanishi, vakolat doiralarning kengayishi va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi sifatidagi maqomining qayta e'tirof etilishi davri[4].

Agar tarixiy manbalarga murojaat etilsa, mahalla ilk belgilarining paydo bo'lishi, aholining mahallaga xos uyushqoqligi, ya'ni jamoaviy turmush tarzi yanada oydinlashadi. Ba'zi tadqiqotchilar Markaziy Osiyoda yashagan qadimgi xalqlar, jumladan o'zbeklarga xos jamoaning shakllanishi antik davrning so'nggi bosqichiga borib taqalishini qayd etadilar[5]. Darhaqiqat, o'sha davrda jamoada nafaqat etnik, balki hududiy jihatdan yaqin qo'ni-qo'shnihilik aloqalari hozirgi kundagiga yaqin ko'rinish kasb eta boshlagan. Bu davrda zardushtiylik dini hukmronlik qilgan bo'lib, zardushtiyalar jamoasida oqsoqollar alohida huquq va majburiyatlarga ega bo'lganlar. Ular jamoa ichki tartib-qoidalarini muntazam boshqarib borganlar.

Masalaga yanada chuqurroq nazar tashlansa, bunday hududiy jamoalarning rivojlanishi O'zbekiston hududlaridan topilgan boshqa arxeologik manbalarda ham aks etgani oydinlashadi. Ya'ni, mintaqaning qadimgi shaharlarida bir qancha patriarxal oila jamoasi «agnatlar» ni birlashtiruvchi jamoa (naf), o'zaro qarindoshlik uzvlari bilan bog'langan urug'-jamo (vis) uchun alohida qal'a va qo'rg'onlar hamda sig'inish joylari bunyod etilgan[6]. Bu esa O'rta Osiyo xalqlari, xususan o'zbeklarga xos uyushma, ya'ni qo'ni-qo'shnihilik aloqalarining ildizlari anchagina qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatmoqda.

Zardushtiyalarda oqsoqollar kengashi uyushmasi kohini Oliy sudya vazifasini bajargan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy, huquqiy va xo'jalik masalalarini hal etganlar. Katta oila jamoasi oqsoqoli «nmanapati» oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq hisoblangan. «vis» muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarini bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari «nmanapati»lar ichidan saylanib, urug' jamoasi boshlig'i, shu bilan birga qozi, diniy kohin, rahnamo ham hisoblangan[7].

O'rta asrlarga kelib, qo'ni-qo'shnihilik va uning tarixiy rivojlanishida mulk egaligi va mahalliy boshqaruv tizimi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Xususan, ilk o'rta asrlarda Movarounnahr va Xorazmda badavlat dehqonzodalar-mulk egaligining shakllanishi va mahalliy boshqaruv davridir. Bu davrda, mahalliy oqsoqolliklar avval mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, VI–VII asrlarda Turk hokonligi davrida turk sulolalari hokimiyat tepasiga keladilar. Xoqonlik huzurida urug' oqsoqollari boshliqlaridan iborat Kengash bo'lib, bunday jamoada mahalliy va davlat ahamiyatiga tegishli muhim masalalar hal etilgan.

VII asr oxirlari VIII asr boshlariga kelib O'rta Osiyoda islom dinining keng tarqalishi bilan shaharlarning o'troq atoli yashaydigan qismiga nisbatan «mahalla» atamasi ishlatila boshlangan. Manbalarda qayd etilishicha mahalla atamasi ilk bor o'rta asr mualliflaridan biri Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida VIII asr boshlaridagi Buxoroning ichki kvartallarini belgilash uchun qo'llanilgan. Buxoroda bundan 1100-yil ilgari 19 ta katta-kichik mahallalar mavjud bo'lganligi, bu mahallalar o'zini o'zi idora qilib, o'z vakolatlariga ega bo'lganligi qayd etiladi[8].

Muarrir Ibn Ja'far bu qadimgi Sharq mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar va ularning boshqaruv faoliyatida ham yorqin ifodasini topganligini ta'kidlab o'tgan. Muallif shaharning markaziy shahriston qismi haqida yozar ekan, bunday joylar alohida devorlar bilan o'ralgan bo'lib, 3–4 mahalladan iborat bo'lganligini qayd etadi[9].

«Mahalla» ning shakllanish tarixiga oid ma'lumotlar, shuningdek Mahmud Qoshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Rizouddin Faxuriddinning «Oila» asarlarida uchraydi. Shuningdek, bir qator boshqa manbalarda ham ayrim izohlar berilgan[10].

Demak, ta'kidlash kerakki, O'zbekiston hududida X–XII asrlardayoq «mahalla» atamasi dastlab, asosan o'troq turmush tarziga asoslangan savdo-sotiq, hunarmandchilik va qisman dehqonchilik bilan shug'illanuvchi shaharlardagi aholi manzilgohlarini anglatgan[11].

XIV–XV asrlarda sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida mahalla yanada rivojlangan. «Temur tuzuklari» da «Har el va har ulusning ulug'larini, boshliq, oqsoqollarini qadrladim, ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandim» deya ta'kidlangan[12].

XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklari davrida mahallalar shaharlar tarkibida yanada rivojlangan. Bu davrda mahallada o'nboshi, ellikboshi, yuzboshi va amin kabi mahalliy boshqaruv tizimidagi amaldorlar xizmat qilganlar. Ularning hukmlari qonun darajasida qabul qilinib, so'zsiz bajarilgan. Ammo xalq faoliyatini nazorat qiluvchi jamoatchilik fikriga unchalik e'tibor berilmaganligi bois, ko'p hollarda mahalliy amaldorlarning haddan oshishi, xalqni ezishi, o'rinsiz soliq va to'lovlar undirishiga olib kelgan. Natijada, odamlar ijtimoiy ahvolining yomonlashuvi mahallalar rivojiga slabiy ta'sir qilgan.

XIX asr oxirlari, ya'ni Turkistonda Rossiya imperiyasi davriga kelib, shahar, qishloq boshqaruv tizimida tuman boshlig'i tasarrufida uchastka (bo'lim) pristavi bo'lib, unga mahalla oqsoqollari, ellikboshi, o'nboshilar bo'ysunganlar.

Mahallalar 1917-yilda o'lkada sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkiliy tuzilma bo'lib kelgan. U o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilishda asosiy bo'g'in sifatida hamda asrlar davomida takomillashtirilgan an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazgan. Ammo shunga qaramasdan, sovet davrida hukmron tuzum mahallani rasman tan olmadi. Biroq aholining chuqur

noroziligiga sabab bo'lmalik uchun mahallalarni taqiqlab ham qo'ya olmadi

Shu boisdan 1932-yil 17-aprelda O'zbekistonda mahallalar faoliyati «Shaharlardagi mahalla qo'mitalari to'g'risida» gi Nizom asosida rasmiylashtiriladi. XX asrning 20-30-yillarida mahalla faollari savodsizlikni tugatish, xalqni ma'rifatlil qilish, joylarni obodonlashtirishda faol ishtirok etadi. Sovet davrida har qancha tazyiq va mahallalar faoliyatini tugatishga qaratilgan harakatlar o'z samarasini bermagan. Natijada Sovet hokimiyati bunday uyushma bilan hisoblashishga va murosaga borishga majbur bo'ladi[13].

1935-1936-yillarda dastlab, shaharlarda mahalla qo'mitalari tashkil etila boshlangan. Ya'ni, mahallalarda rais boshchiligida mahalla komitetlari tashkil etilib, aholi o'rtasida olib boriladigan barcha ishlarni rais boshqargan. Rasmiy doiralari mahalla idoralari aholini hisobga olish va ma'lumotnomalar berish hamda yuqori tashkilotlarga hisobot taqdim etish vakolatlarini yuklagan[14]. Ular shahar sovetiga bo'sungan, ammo ularga yuridik shaxs maqomi berilmagan. Shu bois hukumat o'zini-o'zi boshqarish tuzilmasining faoliyatini tubdan o'zgartirishga majbur bo'ladi.

1961-yil 30-avgustda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan barcha joylarda, ya'ni shahar, qishloq, posyolka va ovullarda mahalla komitetlari to'g'risida maxsus Nizom qabul qilingan[15].

1991-yilda O'zbekiston milliy mustaqilligining qo'lga kiritilishi natijasida, mahalladek an'anaviy tuzilmaning vakolat doiralari yana qayta tiklanishiga imkon yaratildi. Shu boisdan, demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish sharoitida xalqni o'z-o'zini boshqarish hamda jamiyatni ijtimoiy tashkil etishning tarixiy tajribalarini tadqiq etish va umumlashtirish ilmiy ahamiyatga ega bo'lib borayotganligini inobatga olib, hozirgi davrdagi o'zbek xalqining an'anaviy jamoaviy hayot tarzi asoslarini va uning namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklarni o'rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etishini qayd qilish lozim.

Xulosa. Umuman, mahallaning shakllanish tarixi hamda rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqib, uning o'ziga xos xususiyati va mohiyati xususida quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mahalla o'zining uzoq tarixiga ega, azaldan jamiyatimiz uchun o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy uyushma, milliy mentalitetimiz va turmush tarzimizga xos an'analar, urf-odatlar shakllangan, xalqni g'oyaviy jihatdan birlashtiradigan o'ziga xos maskan sifatida yuzaga kelgan.

Ikkinchidan, tarixan tarkib topgan milliy an'analarga ko'ra oila va mahallada azaldan yaxshilik, ezgulik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga izzat va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Ya'ni jamoaviylik, insonparvarlik, mehr-oqibat, saxovatpeshalik kabi fazilatlar mahalla ijtimoiy uyushmasining asosiy vazifasi hisoblangan.

Uchinchidan, bugungi global o'zgarishlar, mafkuraviy tahdidlar sharoitida mahalla xalqimizni turli mafkuraviy xurujlardan asrash, fuqarolar ongida mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularni avvalo, sog'lom, barkamol qilib tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bu esa, avvalambor mahallaga murojaat etishimiz tasodifiy hol emasligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

To'rtinchidan, jamiyatimizda ma'naviy yetuk, barkamol avlodni shakllantirishga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda, bu jarayolardan mahalla ham chetda qolgan yo'q. O'z navbatida, fuqarolar ongida yuksak ma'naviyat va go'zal insoniy sifatlarni shakllantirish, tarbiyalash umumxalq ishi sifatida, uni faol targ'ib qilish oila, bog'cha, maktab oliy ta'lim tizimi, shu bilan birga mahallaning muqaddas burchi ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Shu ma'noda, mahalla faoliyatini samarali tashkil etish ishini yanada takomillashtirish, uning huquqiy maqomini yanada kengaytirish, xalqimiz turmush tarzi bilan bog'liq samarador an'analari va tarixiy tajribasini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи.-Тошкент; 2015.-Б. 142-174.
2. Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев. Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона.-Тошкент., 2001-Б. 50.
3. Ишқуватов В., Толипов Ф. Маҳалла: ўтмишда ва бугун.-Тошкент., 2014.-Б 17.
4. Филанович М.И. О некоторых аспектах истории общины в древности и происхождении «махалла»// Ўзбекистон тарихи. – 2003. – № 2. –Б. 13-18.
5. Асқаров А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. – Тошкент., 1979. – С. 30; Перхинян А.Г. Агнатические группы в древнем Иране // ВДИ. – 1968. – № 3. – С. 34-38; Шунингдек яна қаранг: Сағдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Ташкент., 1987. – С. 71-72.
6. Бойс М. Зараострийцы: Верования и обычаи. - М.: Наука, 1988. – С. 201; Маҳмудов Т. Авесто ҳақида. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – Б. 12;
7. Абу Бакр Мухаммад Ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент., 1993. – Б. 52
8. Абу Бакр Мухаммад Ибн Жаъфар... – Б. 53. Яна маълумот олиш учун қаранг: Наршахи Абу Бакр Мухаммад. История Бухары / Перевод с персидского Н. Лыкошина. - Ташкент., 1897. – С. 69-72.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадуғу билиг. – Т., 1990. – Б. 12-137; Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Т., 1992. – Б. 89; Абу Райҳон Беруний. Ҳиндистон. – Тошкент., 1965. Т. II. – Б. 409-410; Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат.– Тошкент., 1994. – Б. 8-9; Кайковус. Қобуснома.–Тошкент., 1992.–Б.83 - 88.
10. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғотит турк. – Тошкент., 1960.- Т. III; Ризоуддин Ибн Фахруддин. «Оила» / Масъул муҳаррир Ирисов А. – Тошкент., 1991. – Б. 28-44.
11. Ишқуватов В, Толипов Ф. Маҳалла: ўтмишда ва бугун.-Тошкент., 2014.
12. Амир Темур. “Темур тузуклари”. - Тошкент., 2015-Б. 46.
13. ЎЗМА, Ўзбекистон ССР Олий Совети ведомостлари.-Ташкент., 1932. 596-597 бетлар.
14. Маҳалла / Ўзбекистон энциклопедияси. – Тошкент., 2003. Т. 5. – Б. 548..
15. Умарова Г. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг шаклланиши ва такомиллаштириш тарихи. (1991-2001 й). Тарих фан номз. дисс. автореферати.-Тошкент., 2002.-Б. 12. Маҳалла / Ўзбекистон энциклопедияси. – Тошкент., 2003. Т. 5. – Б. 549.